



O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-ILMIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI

Ergashev G‘ayratjon Urolovich

Qarshi davlat texnika universiteti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida assistenti

Email: gayratergashev407@gmail.com

ORCID: 0009-0001-0005-9809

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol14_iss1/779

Annotatsiya

Maqolada qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning o‘zaro uyg‘unlashgan, ekologik (tabiiy resurslardan tejamkor va oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni asrash), iqtisodiy (ishlab chiqarishning samaradorligi, rentabellik darajasi va raqobatbardoshlikni oshirish) hamda ijtimoiy (aholining turmush sifati va daromadlarini yuksaltirish, bandlikni ta‘minlash) yo‘naltirilgan uchta strategik maqsadga asoslangan ilmiy-nazariy konsepsiyasi atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur maqsadlarni ro‘yobga chiqarish ishlab chiqarish faoliyati bilan atrof-muhitni muhofaza qilish o‘rtasida barqaror muvozanatni ta‘minlashni nazarda tutgan holda mamlakatda uzoq muddatli oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash uchun fan va texnikaning ilmiy yutuqlari, innovatsion texnologiyalar hamda resurslarni samarali boshqarish mexanizmlarini integratsiya qilgan kompleks va tizimli yondashuvni talab etishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, barqaror rivojlanish, konsepsiya, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik, subsidiyalash, boshqarish mexanizmi.

Аннотация

В статье всесторонне рассматривается научно-теоретическая концепция устойчивого развития сельского хозяйства, основанная на трех стратегических целях: экологической (экономичное и рациональное использование природных ресурсов, сохранение биоразнообразия), экономической (повышение эффективности производства, рентабельности и конкурентоспособности) и социальной (улучшение качества жизни и доходов населения, обеспечение занятости). Она также исходит из того факта, что реализация этих целей требует комплексного и системного подхода, интегрирующего научные достижения науки и техники, инновационные технологии и механизмы эффективного управления ресурсами для обеспечения долгосрочной продовольственной безопасности страны при сохранении стабильного баланса между производственной деятельностью и охраной окружающей среды.

Ключевые слова: экологический, экономический, социальный, устойчивое развитие, концепция, продовольственная безопасность, экономическая безопасность, субсидия, механизм управления.

Abstract

The article comprehensively discusses the scientific and theoretical concept of sustainable agricultural development based on three strategic goals: ecological (economic and rational use of natural resources, preservation of biodiversity), economic (increasing production efficiency, profitability and competitiveness) and social (improving the quality of life and income of the

population, ensuring employment). It is also based on the fact that the implementation of these goals requires a comprehensive and systematic approach that integrates scientific achievements of science and technology, innovative technologies and mechanisms for effective resource management to ensure long-term food security in the country, while ensuring a stable balance between production activities and environmental protection.

Keywords: ecological, economic, social, sustainable development, concept, food security, economic security, subsidy, management mechanism.

Kirish

Qishloq xo'jaligi jahon mamlakatlari iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo'lgan yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning rivojlanish darajasi davlatning oziq-ovqat mustaqilligi hamda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, moliyaviy va siyosiy tavakkalchiliklarning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Mazkur holat qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan izchil davlat qo'llab-quvvatlovi va samarali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, agrar sohada davlat siyosatini, jumladan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xos bo'lgan xavf-xatarlarni boshqarish tizimini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi qishloq aholisining asosiy daromad manbai bo'lib, dehqonchilik va chorvachilik faoliyatiga tayanadigan hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, agrar tarmoqning barqaror rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiy o'sishini jadallashtirish, hududlarda aholi turmush darajasini yaxshilashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur omillarni inobatga olgan holda, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish hamda qishloq hududlarida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishni ta'minlash, bandlikni kengaytirish va hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ilmiy bilishning tarixiy usuli, statistik tahlil, tizimli va kompleks yondashuv, ilmiy-prognozlash hamda qiyosiy tahlil metodlari keng qo'llanilgan bo'lib, bu o'rganilayotgan muammolarning har tomonlama va chuqur tahlil qilinishini ta'minlaydi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Xorij olimlari G.Gurdjiyev va boshqalar “Barqaror qishloq xo'jaligidagi eng muhim maqsadlardan biri organik usullar va biologik o'simliklarni himoya qilish orqali kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlardan foydalanishni kamaytirishdir. Bu yondashuvlar nafaqat mahsulotlar sifatini yaxshilaydi, balki ekotizimlarning sog'lig'ini ham yaxshilaydi, bu esa o'z navbatida inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi”¹ deb hisoblaydi. Mahalliy olimlardan N.X.Bekmurodov² esa ayrim rivojlangan va boshqa davlatlarda ham qishloq xo'jaligini uzoq

¹Научный журнал «in situ» issn (p) 2411-7161 / issn (e) 2712-9500 №2 / 2025

²Бекмуродов Н.Х. Қишлоқ хўжалигини стратегик ривожлантиришнинг устувор йўналишлари ва уни амалга ошириш йўллари. Иқтисод ва молия /Экономика и финансы. 2021, 4(140)

istiqbolga mo'ljallangan rivojlantirish konsepsiyasi va strategiyalari ishlab chiqilganligini, masalan Yevropa Ittifoqini barqaror rivojlantirish va inklyuziv o'sishga yo'naltirilgan “Yevropa 2020”, Germaniya Federativ Respublikasining milliy rivojlanish Strategiyasi, Xitoy Xalq Respublikasida “Prognoz-2050” va boshqalarni qayd etib o'tadi.

B.Razzoqova³ o'z ilmiy tadqiqot ishida “O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish istiqbollari” nomli maqolasida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishini taminlashda xalqaro moliya institutlarining mablag'laridan foydalanishni maqsadga muvofiqligini asoslaydi. J.J.Anarmatov⁴ esa “Hududiy qishloq xo'jaligi rivojlanishi jarayonlari va ulardagi o'zgarishlar” maqolasida hududiy qishloq xo'jaligini rivojlantirishda institusional mexanizmlardan samarali foydalanishni maqsadga muvofiqligi takidlaydi.

S.Topildiyev esa “Qishloq xo'jaligi tarmog'ining jadal rivojlanishi, o'z navbatida, suv resurslari iste'molining ortib borishiga olib keladi. Ushbu holat yuzaga kelayotgan chaqiruv va xatarlarga nisbatan o'z vaqtida choralar ko'rilmagan taqdirda, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin”⁵ligini qayd etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi”ni tasdiqlash to'g'risidagi PF-5853-son (2019 yil 23 oktabr) farmoni qabul qilindi⁶. Strategiyada to'qqizta ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib, unda ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish, qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko'maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishga alohida etibor qaratilgan.

Tahlil va natijalar

Qishloq xo'jaligi tizimlarini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar insoniyat jamiyatining ekologik tizimlar evolyutsiyasi bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Ushbu nazariyalar agroekotizimlar mahsuldorligini oshirish, oziq-ovqat tizimlarining barqarorligini ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda biosferaning muhim tarkibiy qismlari bo'lgan yer va suv resurslaridan oqilona va barqaror foydalanish tamoyillariga asoslanadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy davrlarni qamrab oladi. Agrar soha mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, miloddan avvalgi V—III ming yilliklarda hozirgi O'zbekiston hududida dehqonchilik va chorvachilik faoliyati shakllana boshlagan. Ushbu davrda insonlar yovvoyi o'simliklarni madaniylashtirish va hayvonlarni xonakilashtirish jarayonlarini amalga oshirgan, bu esa ishlab chiqaruvchi xo'jalik faoliyatining vujudga kelishiga asos bo'lgan.

Dastlab insonlar tabiat tomonidan tayyor holda taqdim etilgan resurslardan foydalangan bo'lsa, keyinchalik ular foydali o'simlik turlarini tanlab yetishtirish va hayvonlarni xonakilashtirish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini mustaqil ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu jarayon dehqonchilik va chorvachilikning shakllanishiga asos soldi hamda jamiyat taraqqiyotida tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga olib keldi.

³https://www.researchgate.net/publication/351647596_Uzbekiston_Respublikasi_kislok_huzaligini_innovacion_rivozi_antiris_istikbollari

⁴https://www.researchgate.net/publication/376403920_ududij_kislok_huzaligi_rivozlanisi_zaraenlari_va_ulardagi_uz_garislar

⁵ file:///C:/Users/User/Downloads/zbekistonda-ishlo-h-zhaligini-modernizatsiya-ilishning-ustuvor-y-nalishlari.pdf

⁶ <https://lex.uz/docs/4567334>

Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xo'jalik yuritish tizimlari O'zbekistonning tarixiy rivojlanishida muhim o'rin egallagan an'anaviy qishloq xo'jaligi shakllari hisoblanadi. Ushbu xo'jalik yuritish turlari asosan tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashgan holda rivojlangan. Ko'chmanchi xo'jalik chorvachilikka asoslangan bo'lib, o'zbek xalqi asrlar davomida tog'li hududlarda yashab, chorva mollarini mavsumiy yaylovlar va qishlovlar o'rtasida ko'chirish orqali boqib kelgan.

Yarim ko'chmanchi xo'jalik tizimida aholining bir qismi doimiy yashash joyida istiqomat qilgan holda dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsa, ikkinchi qismi chorvachilik faoliyatini olib borgan. Ushbu tizim dehqonchilik va chorvachilikning uyg'unlashgan shakli sifatida shakllanib, xalqning madaniyati, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda ham ayrim hududlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot unsurlari saqlanib qolgan.

O'zbekiston hududining bir qismi tog'li relefga ega ekanligi tarixan ko'chmanchi chorvachilikning ustuvor rivojlanishiga sabab bo'lgan. Qadimgi o'zbeklar va boshqa etnik guruhlar qoramol, qo'y, echki, ot va tuya boqish orqali go'sht, sut, jun va charm mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanganlar.

O'rta asrlarda, xususan, Qoraxoniylar davlati hukmronligi davrida (X–XII asrlar) qishloq xo'jaligi, ayniqsa sug'orma dehqonchilik yuqori darajada rivojlangan. Ushbu davrda arpa, bug'doy, tariq, sabzavot va mevali ekinlar yetishtirilgan, sug'orish inshootlari, suv omborlari va kanallar barpo etilgan. Shaharlar atrofida intensiv yer ishlov berish tizimlari shakllanib, agrar ishlab chiqarish hajmi kengaygan.

Bundan tashqari, O'zbekiston hududidan muhim savdo yo'llarining o'tganligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining almashinuvini faollashtirib, agrar sohaning iqtisodiy ahamiyatini oshirgan. Natijada qishloq xo'jaligi o'rta asrlarda jamiyatning iqtisodiy hayotida yetakchi o'rin egallab, uning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmasining shakllanishida muhim omilga aylangan.

Qishloq xo'jaligi sohasining ilmiy asosda rivojlanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Mazkur davrda agronomiya va qishloq xo'jaligi fanlari yo'nalishida fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ekinlarning yangi navlari yaratildi hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy etila boshlandi. Ushbu jarayon agrar sohaning ilmiy asosda tashkil etilishi va boshqarilishiga zamin yaratdi.

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida O'zbekiston qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli rivojlanish bosqichiga o'tdi. Dastlab chorvachilik ustuvor ahamiyat kasb etib, aholining asosiy qismi ko'chmanchi turmush tarzini olib borgan. Biroq XIX asr o'rtalaridan boshlab aholi migratsiyasi kuchayishi hamda o'troq dehqonchilik faoliyatining kengayishi natijasida agrar ishlab chiqarish tizimida muhim tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi.

Mazkur davrda yangi ekin turlari joriy etilib, sug'orish inshootlari barpo etildi hamda ekin maydonlari sezilarli darajada kengaydi. Rus dehqonlarining mintaqaga ko'chib kelishi natijasida ilg'or agrotexnik usullar tarqaldi, bu esa mahalliy aholining chorvachilik va dehqonchilik faoliyatini uyg'unlashtirishiga olib keldi. Natijada qishloq xo'jaligi an'anaviy xo'jalik yuritish shakllari bilan zamonaviy dehqonchilik usullarining integratsiyasi asosida rivojlandi. Rossiya imperiyasi tarkibiga kirish bilan bir qatorda, yangi ishlab chiqarish texnologiyalari, yerga ishlov berish va sug'orish tizimlari bosqichma-bosqich joriy etila boshlandi. Rus dehqonlari va mahalliy aholi o'rtasidagi xo'jalik tajribasi almashinuvi dehqonchilik madaniyatining keng yoyilishiga xizmat qildi.

Sovet davrida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasida tub institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, agrar soha kollektivlashtirilib, kolxoz va sovxozlar tashkil etildi. Sug‘oriladigan yerlar maydoni kengaytirildi, yangi irrigatsiya tizimlari barpo etildi hamda paxtachilik yetakchi tarmoqlardan biriga aylantirildi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mexanizatsiyalash va kimyolashtirish jarayonlari izchil amalga oshirildi (Kostyuk, 2010, 7–12-betlar).

Sovet davrida mamlakatda qishloq xo‘jaligi fanining rivojlanishi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Agrar sohada ilmiy-tadqiqot ishlari tizimli va keng ko‘lamda olib borilib, mahalliy olimlar ekinlarni yetishtirish texnologiyalari, chorvachilikni rivojlantirish, sug‘orish tizimlarini takomillashtirish hamda tuproqni qayta ishlash masalalari bo‘yicha muhim ilmiy natijalarga erishdilar.

1-jadval.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlanish bosqichlari va erishilgan natijalar⁷

T/r	Davr	Yuz bergan voqea va xususiyatlar	Erishilgan ilmiy va amaliy natijalar
1	1920–1930 yillar	Kollektivlashtirish boshlandi, kolxozlar tashkil etildi.	Qishloq xo‘jaligi davlat nazoratiga olindi. Sug‘orish va yerlarni qayta ishlash usullari bo‘yicha birinchi ilmiy ishlar olib borildi.
2	1940–1950 yillar	Urushdan keyingi tiklash ishlari olib borildi.	Agrosanoat tizimi joriy etildi. O‘simliklarni yangi navlari va chorva mollarini yangi zotlarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqot institutlari tashkil etildi.
3	1950–1960 yillar	Ilmiy tadqiqot institutlari faol ishlay boshladi	Sug‘orish tizimlarini o‘rganish, yangi navlarni yaratish va tuproq tuzilishini yaxshilash yo‘nalishida katta ishlar amalga oshirildi.
4	1970–1980 yillar	Intensivlashtirish jarayonlari amalga oshirildi. Intensiv texnologiyalar va kimyoviy lashtirish siyosati amalga oshirildi.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi keskin oshdi. Organik o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligi o‘rganildi va agrotexnik usullar ishlab chiqildi.
5	1980–1991 yillar.	Kolxoz va sovxozlarning faoliyati beqarorlashdi, ammo ilmiy ishlar davom etdi.	Ekologik barqarorlik, biologik himoya va tuproq eroziyasining oldini olish bo‘yicha yangi yo‘nalishlar rivojlana boshladi.
6	1991-1994 yillar	Tarmoqlararo munosabatlar izdan chiqdi, kolxoz va sovxozlar faoliyati tanazzulga uchradi, moliyaviy beqarorlik yuz berdi.	Qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiyalash choralari ko‘rildi, korxonalarining qarz majburiyalari muzlatildi. Sog‘lomlashtirish choralari ko‘rildi. Biroq, salmoqli natijalarga erishilmadi.
7	1994-2004 yillar	Sovxozlar tugatildi jamoa (shirkat) xo‘jaliklari tashkil etildi. Shirkat xo‘jaliklari tarkibida sinov tariqasida fermerchilik tashkil etildi.	Bu bosqichda qishloq xo‘jaligida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish ishlari amalga oshirildi. “Yer to‘g‘risida”, “Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida”, “Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida” va “Qishloq xo‘jaligi kooperativi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari ishlab chiqildi. Qishloqda kichik tadbirkorlik yo‘lga qo‘yildi. Dastlab chorvachilik fermalari, bog‘ va tokzorlar aholiga xususiy mulk qilib berildi.
8	2005-2014 yillar	Qishloq xo‘jaligida fermerchilikni rivojlantirish siyosati olib borildi	O‘zbekistondagi 1100 dan ortiq qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyati tugatildi, ularning negizida kichik fermer xo‘jaliklari tashkil etildi. 2008-2009 yillarda fermer xo‘jaliklari yer maydonlarini optimallashtirish siyosati amalga oshirildi, ularning moddiy texnika bazasini mustahkamlash choralari ko‘rildi. Fermer xo‘jaliklarida dastlab iqtisodiy o‘shish kuzatildi, faoliyat samaradorligi taminlandi. Biroq yer maydoni nisbatan yiriklashgan fermer xo‘jaliklarida iqtisodiy samaradorlik pasaydi.
9	2015-2018 yillar	Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etish, klassterlash siyosati yuritildi.	Bazi samaradorligi past bo‘lgan fermer xo‘jaliklarini yer maydonlari yana kamaytirildi, fermer xo‘jaliklarining tarmoq tarkibini kengaytirish choralari ko‘rildi, imtiyozli kreditlar berish yo‘li orqali, foramolchilik, qo‘ychilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikni rivojlantirish

			ishlari amalga oshirildi. 2018 yilda eksperiment tariqasida klassterlar tashkil etildi.
10	2019 yildan hozirgacha	Klasterlar va fermer xo'jaliklari faoliyatini integratsiyalash, yirik qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini tashkil etish siyosati yuritilmoqda.	2019 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublika fermer xo'jaliklari yer maydonlari qayta optimallashtirildi va paxta-g'alla yo'nalishidagi fermer xo'jaliklarining yer maydonlari kamida 100 ga.dan ortiq bo'lishi taminlandi. Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini taminlash maqsadida har yili o'rtacha 100 ming gektar yer maydoni paxta-g'alladan bo'shatilib, temir daftarga tushgan oilalarga, yoshlarga, xotin qizlarga va boshqa ehtiyojmand shaxslarga kamida o'n yil muddatga shartnoma asosida tarqatildi. Klassterlarning faoliyat va imkoniyatlari kengaytirildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sotish tizimini shaffofligini taminlash maqsadida auksion birja savdolari yo'lga qo'yildi. Innovatsion xorijiy texnologiyalarni qo'llash, ekinlarning serhosil navlarini va chorva mollarining mahsuldor zotlarini xorijdan olib kelish, yer maydonlarini lazerli texnikalar yordamida tekislash, suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida suv soliqlarini joriy etish, suv yo'llarini betonlash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda. Sohani zarur mutaxassis kadrlar bilan taminlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida chuqur tarkibiy va institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida agrar soha subektlari, jumladan qishloq xo'jaligi korxonalarini va fermer xo'jaliklarining faoliyat yuritish mexanizmlari tubdan o'zgardi. Hozirgi bosqichda qishloq xo'jaligi fanlari asosan davlat universitetlari va ilmiy-tadqiqot institutlari negizida rivojlanib, zamonaviy agrotexnologiyalarni yaratish va takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu tariqa, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi fanlari boy tarixiy tajribaga ega bo'lib, bugungi kunda ham agrar sohaning barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

1991-yildan keyingi davrda kolxoz va sovxozlar tugatilib, ularning o'rnida xususiy fermer xo'jaliklari shakllandi. Biroq, islohotlarning dastlabki bosqichida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmining qisqarishi va jiddiy iqtisodiy qiyinchiliklar kuzatildi. Keyingi yillarda xususiy fermer xo'jaliklarining faoliyati bosqichma-bosqich rivojlanib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlari kengaya boshladi. Umuman olganda, mustaqillik yillarida agrar sohada yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan muammolar ham yuzaga keldi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish jarayonida xususiylashtirish siyosati muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, yer islohoti amalga oshirilib, davlat tasarrufidagi xo'jaliklar xususiy mulkka o'tkazildi. Bu esa fermerlarga yer resurslaridan mustaqil va erkin foydalanish imkonini yaratdi. Samarali va puxta o'ylangan yer siyosati iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, kambag'allik darajasini pasaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, adolatli va shaffof yer egaligi tizimlarining shakllantirilishi investitsiyalarni jalb etish, qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun zarur shartlardan biridir.


2-jadval

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili⁸

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yilda 2020 yilga nisb. o'zg. % da
Qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni, ming gektar	3396,1	3340,6	3353,3	3355,4	3355,1	98,8

Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd. so‘m	250250,6	303415,5	345191,7	404648,6	467198,3	186,7
shu jumladan:						
dehqonchilik	123858,8	152130,4	177962,7	202679,1	237748,9	192,0
chorvachilik	126391,8	151285,1	167229	201969,5	229449,4	181,5
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd. AQSH dollar	26,1	30,1	31,4	34,4	34,98	134,0
shu jumladan:						
dehqonchilik	12,9	15,1	16,2	17,2	17,8	137,9
chorvachilik	13,2	15	15,2	17,2	17,18	130,1
Bir ga yerdan olingan daromad, mln. so‘m	73,69	90,83	102,94	120,60	139,25	189,0
Bir ga yerdan olingan daromad, AQSH dollari	7 685,29	9 010,36	9 363,91	10 252,13	10 425,92	135,7

2-jadval malumotlari tahlil davrida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ekin maydonlari 98,8 %ga kamayganligini, biroq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shish suratlari kuzatilmoqda. Kichik tarmoqlar tahlil esa chorvachilikka nisbatan dehqonchilik tarmog‘ining barqaror o‘shish suratlari taminlanganligini jadval malumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm. Qishloq xo‘jaligining dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning nisbiy ko‘rsatkichlari o‘zgarish dinamikasi tahlili

1-rasm malumotlari tahlil davrida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining o‘rtacha o‘shish suratlari 2,7-3,9 foiz atrofida, dehqonchilikdagi o‘shish suratlari 3,2-4,3-foiz atrofida, chorvachilik tarmog‘i esa 2,1-3,7 foiz atrofida tebranib turganligini ko‘rsatmoqda. Bu o‘zgarishlar dinamikasi demografik o‘shish 820-830 ming kishini va umumiy aholi soni 38,0 mln.dan ortiq bo‘lgan O‘zbekiston uchun yetarli emas deb hisoblaymiz.

Shu bilan bir qatorda, keyingi paytda yuz berayotgan iqlim o‘zgarishlari muammosi, suv taqchilligi muammosi, resurslar bozorida narx paritetidagi nobarqarorlik va shu singari muammolar yuz bermoqda. Natijada, yerlarni qayta ishlash, shudgorlash va sug‘orish ishlari yetarli darajada amalga oshirilmasligi ekin maydonlari sifatining pasayishiga, yaylovlarning degradatsiyaga uchrashiga va tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelmoqda. Ushbu

ekologik salbiy jarayonlar qo‘shimcha ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarib, aholining doimiy ish izlab o‘z yashash joyini tark etishiga sabab bo‘lmoqda. Ishsizlik darajasining oshishi hamda yer resurslaridan samarasiz foydalanish qishloq xo‘jaligi sektorining zaifligi va iqtisodiy beqarorlik mavjudligidan dalolat beradi. Ekin maydonlarining qisqarishi, yerga o‘z vaqtida agrotexnik xizmat ko‘rsatilmaligi, yerlarni sug‘orishda suv miqdorining yetishmasligi va ulardan samarasiz foydalanish hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu masalalar ijobiy hal etilmaguncha, qishloq hududlarida aholi turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyati cheklangan bo‘lib qoladi.

Qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritish nazariyalarining rivojlanishi insoniyatning oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish zarurati bilan bevosita bog‘liq holda turli tarixiy davrlarda shakllanib kelgan. Hozirgi bosqichda raqamli qishloq xo‘jaligi va ekologik yo‘naltirilgan agrar konsepsiyalar yetakchi ilmiy-amaliy yo‘nalishlar sifatida e‘tirof etilmoqda. Ushbu ilmiy yutuqlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish hamda milliy va global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror va inklyuziv o‘shishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Agrar sohaga investitsiyalar hajmini oshirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hamda davlat tomonidan kompleks qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish orqali mamlakatning agrar salohiyatini yanada mustahkamlash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, fermer xo‘jaliklari rahbarlari va mutaxassislarining bilim va malakasini oshirish, qishloq xo‘jaligi fanini rivojlantirish, shuningdek, qishloq hududlarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish agrar sohaning uzoq muddatli barqaror o‘shishini ta‘minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Mazkur choralar mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishi nafaqat milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlaydi, balki qishloq joylarda yashovchi aholining turmush darajasi va ijtimoiy farovonligini oshirishga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, agrar sohada zamonaviy ishlab chiqarish usullaridan foydalanish barqaror o‘shishga erishishning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar, aniq dehqonchilik (precision agriculture) usullari, organik ishlab chiqarish tizimlari hamda biologik himoya vositalarini qo‘llash qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish bilan bir qatorda, tabiiy resurslardan oqilona va tejamkor foydalanish imkonini bermoqda. Shuningdek, fermerlar va agronomlarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etish qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilash va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun moliyaviy va kredit infratuzilmasini shakllantirish, moliyaviy hamda texnik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, agrar xizmatlar tizimini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va qayta ishlash bo‘yicha samarali logistika zanjirlarini yaratish bo‘yicha qator chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur choralar ko‘p hollarda normativ-huquqiy hujjatlar doirasida qolib, ularning real ijrosi yetarli darajada ta‘minlanmayapti.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muvozanatni ta‘minlashni talab etadi. Ayniqsa, suv resurslarining cheklanganligi sharoitida suv tejovchi texnologiyalarni, jumladan tomchilatib sug‘orish va resurs tejamkor agrotexnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer resurslaridan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va degradatsiya jarayonlarining oldini olish barqaror qishloq xo‘jaligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalar, raqamli yechimlar va ilmiy asoslangan agrotadbirlarni qo‘llash ishlab chiqarish hajmi va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Fermer xo‘jaliklarini institusional va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda bozor infratuzilmasini rivojlantirish barqaror rivojlanishni ta‘minlovchi muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, organik dehqonchilikni rivojlantirish va bioxilma-xillikni saqlash qishloq xo‘jaligining uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy-nazariy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning uyg‘unlashuvi mamlakatda qishloq xo‘jaligini zamonaviy, samarali va barqaror iqtisodiy tarmoqqa aylantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi say-harakatlar izchil davom ettirilsa, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi yanada mustahkamlanadi hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti salohiyati kengayadi. Shu tariqa, ilmiy yutuqlar va innovatsiyalarning ta‘siri agrar sohaning rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shib, kelgusida ushbu sohada yangi natija va yutuqlarga erishish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бекмуродов Н.Х. Қишлоқ хўжалигини стратегик ривожлантиришнинг устувор йўналишлари ва уни амалга ошириш йўллари. Иқтисод ва молия /Экономика и финансы. 2021, 4(140)
2. Научный журнал «in situ» issn (p) 2411-7161 / issn (e) 2712-9500 №2 / 2025
3. https://www.researchgate.net/publication/351647596_Uzbekiston_Respublikasi_kislok_huzaligini_innovacion_rivozlantiris_istikbollari
4. https://www.researchgate.net/publication/376403920_ududij_kislok_huzaligi_ri_vozlanisi_zaraenlari_va_ulardagi_uzgarislar
5. <https://lex.uz/docs/4567334>.
6. file:///C:/Users/User/Downloads/zbekistonda-ishlo-h-zhaligini-modernizatsiya-ilishning-ustuvor-y-nalishlari.pdf